

O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA DARAJALANISH HODISASINING BERILISHI

M.B.Kasimova¹

Annotatsiya: Maqolada tadqiqotchining O‘zbek tili milliy korpusida o‘zbek tili graduonimlarining berilishi, O‘zbek tili milliy korpusida sinonim so‘zlarni berish, korpus lingvistikasining vujudga kelishida turli (ratsional, empirik, resurs-zaxira) yondashuvlarning ta’siri bo‘yicha ilmiy manbalarga asoslangan izlanishlari berilgan.

Kalit so‘zlar: Korpus lingvistikasining rivoji, an’anaviy tilshunoslik, ta’limiy lug‘atlar, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, milliy korpusda sinonim so‘zlarni berish, darajalanish qatorlarining milliy korpusda berilishi.

Tilshunoslik fanining XXI asrdagi taraqqiyoti bevosita korpus lingvistikasi bilan bog‘liqdir. Tilshunos olimlar fikricha, korpus lingvistikasi tilshunoslik turkumidagi barcha fanlarning lokomotivi vazifasini bajarib berishi lozimligi qayd qilingan. O‘zbek korpus lingvistikasi sohasida tadqiqot olib borgan tadqiqotchi A.Eshmuminov korpus lingvistikasi sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis tilshunos olimlar: V.P.Zaxarov, A.D.Mayorovalarning ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan fikrlariga tayangan holda korpus lingvistikasi haqida quyidagi qimmatli fikrlarni bayon qilgan: “Korpus lingvistikasining rivoji, korpuslarning yaratilish masalasi o‘z kelajak taqdiri uchun qayg‘uradigan millatlar uchun dolzarb masalalardan biri. XX asrning birinchi yarmida milliy korpusni faqat qo‘lbola usulda tuzish imkoni mavjud edi. Bu esa uzoq muddat va ko‘p xarajat talab qilardi. Shu sababli matn korpuslarini yaratishga u qadar ro‘yxushlik bilan yondashilmas, unga qo‘l urilishi ham ko‘pchilik tomondan bildirilgan qiziqish evaziga sodir bo‘lardir. Yuqorida ta’kidlangani kabi axborot-kommunikativ texnologiyalar taraqqiyoti bilan korpusga aloqador materiallarni sinxronlashtirish va tizimga solish ishlari osonlashdi, xarajatlar ham shunga ko‘ra kamaydi. Korpus lingvistikasining rivoji jamiyatga mislsiz foydani va‘da qiladi: holbuki, unda gumanitar va texnika fanlariga oid ko‘plab ijobiy jihatlari o‘zaro birlashadi. Biroq yaqin yillarda shakllangan fan sifatida korpus lingvistikasi hali to‘laqonli mustaqillikka erishgan, takomillashgan fan hisoblanmaydi. Chunonchi, qator olimlar korpus lingvistikasini an’anaviy tilshunoslikning sohasi sifatida sharhlaydilar va tushunadilar. Bunda ular korpus lingvistikasini nazariy asosdan xoli, faqat amaliy jihatlardan tarkib topgan fan, deya izohlaydilar. Ularning fikricha, korpus materialni qayta ishlashning optimal usuli, yangi informatsion resurs. Vaholanki, tilshunoslikning amaliyot bilan bog‘langan har qanday sohasi o‘z predmeti, usuli va nazariyasiga ega fan sifatida mavjud bo‘la oladi, busiz korpus lingvistikasining terminologik apparati shakllanmasdi ham. Aslida, korpus lingvistikasining vujudga kelishida XIX o‘rtalaridagi lingvistikaga bo‘lgan ratsional (to‘g‘ri va noto‘g‘ri konstruksiyalarni farqlashga xizmat qiluvchi lingvistik ichki hissiyotga asoslanadi) va uning ketidan empirik (kommunikatsiya uchun qulayliklar majmuasini taqdim etuvchi resurs – zaxira) yondashuvning ta’siri bor. Bugungi kunda korpusni tuzishda qo‘llanadigan texnologiyalarning dastlabki ko‘rinishlari hali kompyuterlar kashf qilinmagan davrda – XVIII – XIX asrlarda yaratilgan. Tilni qiyosiy-tarixiy

¹ fffd.(PhD) – “Yosh chegarachilar”HAL ona tili va adbiyot fani o‘qituvchisi



tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshiruvchilar tomonidan ulkan miqdordagi matnlarni bobo tilga chiqib borish maqsadida o'rganish ham korpus lingvistikasining ildizlari sifatida baholanadi".² Bugungi zamonaviy lingvistikamiz yuqorida tadqiqotchi ta'kidlaganidek, tizimli ravishda rivojlanib borayotganligi bugungi kunda ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar asosida dalillanadi.

O'zbek tili milliy korpusida sinonim so'zlarni berish mavzusida tadqiqot olib borgan tadqiqotchi A.Eshmuminov sinonimlarni korpusda berish masalasini sharhlar ekan, bevosita darajalanish qatorlarini ham qanday qilib milliy korpusda berish haqida o'zining quyidagi amaliy takliflarini berib o'tadi:

Berilgan ketma-ketlik asosida eng ko'p sinonim so'z sifatida tahlilga olinadigan yuz leksemasining tahlilini amalga oshiramiz:

Yuz

Turkumi: ot

3. Ma'nosi: Odam boshining old tomoni, old tomondan ko'rinishi; bet³ Etimologiyasi: Sof turkiy so'z. Yuz boshning burun joylashgan old qismi, "aft" qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ko'p ma'noli ot dastlab yu:z tarzida talafuz qilingan keyinroq o': unlisining cho'ziqroq shakli belgisi, o'zbek tilida yumshoqlik belgisi yo'qolgan yo':z-yo'z-yuz⁴

Tarkibi: yaxlit

Yasalishi: yasalmagan

Uslubi: uslubiy xoslanmagan

Tuzilishi: sodda tub

Rus tilidagi muqobili: лицо

Ingliz tilidagi muqobili: face

Darajalanish qatori:

a) ijobiy salbiyligiga ko'ra:

Turq-bashara-aft-bet-yuz-chehra - husn - jamol - diydor - oraz
-4 -3 -2 -1 0 +1 +2 +3 +4 +5⁵

b) ishlatilish miqdoriga ko'ra:

yuz-bet-aft-chehra-bashara-turq

12. Omonimi: yuz (son, yuzta non)

13. paronimi: mavjud emas

14. antonimi: mavjud emas

15. Ishlatilishi: Ahmad qilib qo'ygan ishidan qo'rqib, yuzi oqardi⁶.

Ushbu yuqoridagi fikrlar bugungi kunda o'zbek tili milliy korpusini yaratish jarayonidagi dastlabki qadamlar sifatida baholanmoqda. Korpus lingvistikasining turli tizimli tillar uchun lingvistik korpuslarda graduonimiyaning yuzaga kelishi masalasi haqida tilshunos olimi J.Jumabayeva "Leksik graduonimiyaning boshqa semantik kategoriyalar kabi korpusda ham o'z o'rniga ega bo'la olishi muhim

² Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 45.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилд–Т.:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006, 2008. 3-том 75-б

⁴ Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд Т: "Университет" 2000

⁵ Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б. 77.

⁶ Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 101-102.



hisoblanadi. Bu nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki parallel korpusda tarjimonlar uchun darajalanishning mosligi, qiyoslanayotgan matnlarda adekvatlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligini tadqiq qilish uchun ham zarur manba bo'lib xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan leksik graduonimlar lug'ati asosida korpusga maxsus dasturlar yordamida kiritiladi. Kiritilgan ma'lumotlarda uchraydigan leksik graduonimlar tahlili lingvistika sohasida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim manba bo'lishi shubhasiz,⁷ deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, yaratiladigan lingvistik korpuslar uchun birinchi navbatda tilda mavjud bo'lgan barcha sohaga oid lug'atlar yaratilishi va izohli lug'atlardagi izohlar takomillashtirilishi lozim. Busiz esa milliy korpusni yaratish amri mahol hisoblanadi. Ayni vaqtda o'zbek tilida "O'zbek tili graduonimlarining izohli lug'ati" yaratilmaganligi esa ushbu jarayonni tezlashtirishga, albatta, o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan "O'zbek tilining ta'limiy korpusi"da <http://uzschoolcorpara.uz> manzili orqali darajalanuvchi fe'l leksemalarini ko'rishimiz mumkin:

Buzilmoq – sinmoq – avariya bo'lmoq

(zarar darajasining ortiqqligiga ko'ra)

fe'l turkumiga oid darajalanish qatori "O'zbek tilining ta'limiy korpusi"da quyidagi interfeysda kuzatishimiz mumkin.


"O'zbek tilining ta'limiy korpusi"da darajalanuvchi fe'llar qatori quyidagi ketma-ketlik bo'yicha izohlangan.

1. So'z tarkibi
2. So'z bo'g'inlari
3. Izohlari
4. Antonimlari
5. Sinonimlari
6. Paronimlari
7. Iboralar
8. Darajalanish qatori tarzida izohlanishini kuzatishimiz mumkin.

Buzilmoq – sinmoq – avariya bo'lmoq darajalanish qatorining birinchi so'zi "O'zbek tilining ta'limiy korpusi"da quyidagi elektron manzil bilan qidirilganda <http://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=Buzilm%D0%BEq&il=true&il=false&ol=true&ol=false&sl=true&sl=false&al=true&al=false&pl=true&pl=false&qo=true&qo=false&ib=true&ib=false&dq=true&dq=false&ux=false> natija quyidagi interfeysda namoyon bo'ldi. (3.3-rasm)


⁷ Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б 185-186





3.3-rasm. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”

Buzilmoq – sinmoq – avariya bo‘lmoq darajalanish qatorining barchasi qidiruvga berilganda natija boshqacharoq yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (3.3-rasm)




3.3-

rasm. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”

Natija quyidagi manzildan olindi:

<http://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=Buzilm%D0%BEq+-+sinm%D0%BEq+-+avariya+bo%60lm%D0%BEq&il=true&il=false&ol=true&ol=false&sl=true&sl=false&al=true&al=false&pl=true&pl=false&qo=true&qo=false&ib=true&ib=false&dq=true&dq=false&ux=false>





3.7-rasm. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”

O‘zbek tilining ta’limiy korpusi o‘zbek tili milliy korpusi yaratilish jarayonidagi tajriba bo‘lganligi uchun ushbu lingvistik korpusda fe’l turkumiga oid darajalanish qatorlarini berishda ba’zi muammolar mavjud. Tizim yangilanuvchi xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun tizimdagi muammolar doimiy ravishda yangilanib borilishini ham aytib o‘tish joiz.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirishning tilshunoslikka tatbiqi birinchi navbatda til sohiblari uchun qulayliklar yaratishi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2019.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилд–Т.:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006, 2008. 3-том.
3. Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд Т: “Университет” 2000
4. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
5. Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016.

